


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 14 768,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 107,7 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2 934,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,7 martani), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11833,5 mlrd. so'mni (93,7 %ni), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 998,5 mlrd. so'mni (76,9 %ni) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 14 768,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan 107,7 %ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasi 80,1 % va yirik korxonalar hissasi 19,9 %ga to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Samarqand shahrida bo'lib jamiga nisbatan 37,9 %ni yoki 5 599,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng past ulush Paxtachi tumanida 2,1 % yoki 303,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelmoqda. Mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, 11 833,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 6,3 %ga kamaygi. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 80,1 %ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kattaqo'rg'on shahrida (99,9 %) va Jomboy (99,2 %), Nurobod (99,1 %), Kattaqo'rg'on (98,8 %), Ishtixon (98,9 %), Narpay (98,8 %), Qo'shrabot (99,0 %) va Payariq (98,6 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-noyabr

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan viloyatning hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (116,1 %) va Jomboy (104,0 %), Payariq (104,7 %), Toyloq (104,4 %) tumanlarda qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	14 768,1	107,7	2 934,5	2,7 m.	11 833,5	93,7
Samarqand shahri	5 599,8	116,1	2 712,1	3,0 m.	2 887,6	73,9
Kattaqo'rg'on shahri	742,9	102,6	1,1	95,4	741,8	102,6
tumanlar:						
Oqdaryo	365,4	103,7	6,4	118,6	359,0	103,5
Bulung'ur	752,7	101,9	87,7	19,0 m	664,9	90,6
Jomboy	510,2	104,0	4,3	96,3	505,9	104,1
Ishtixon	574,7	102,1	6,3	42,8	568,4	103,6
Kattaqo'rg'on	575,0	103,3	6,7	97,1	568,3	103,4
Qo'shrabot	335,4	102,4	3,4	99,5	332,0	102,5
Narpay	442,0	101,8	5,2	97,8	436,8	101,9
Payariq	517,2	104,7	7,0	96,2	510,2	104,8
Pastdarg'om	920,8	102,8	24,0	45,3	896,8	106,5
Paxtachi	303,5	102,5	5,3	113,4	298,2	102,3
Samarqand	643,0	103,6	14,8	96,2	628,3	103,8
Nurobod	355,7	102,1	3,2	115,6	352,5	102,0
Urgut	1 691,7	103,8	30,2	76,2	1 661,5	104,5
Toyloq	438,1	104,4	16,8	3,5 m.	421,3	101,6

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,7 martaga o'sdi va 2 934,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 19,9 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 11 833,5 mlrd. so'mni va 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 93,7 %ni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,1 %ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Jomboy (99,2 %), Nurobod (99,1 %), Kattaqo'rg'on (98,8 %), Ishtixon (98,9%) va Qo'shrabot (99,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 19,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (48,4 %), Bulung'ur (11,7 %), Toyloq (3,8 %) va Pastdarg'om (2,6 %) tumanlarida kuzatildi.



SAMARQAND VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2020- yil yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 783,8 ming so'm (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 105,6 %ni tashkil etdi) va Ishtixon (99,9 %) tumanida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichida kamayish sur'ati kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori Samarqand shahri (10 209,3 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (8 254,7 ming so'm) va Bulung'ur tumani (4 014,1 ming so'm), Urgut tumani (3 308,0 ming so'm), Jomboy tumani (2 942,3 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	3 783,8	105,6
Samarqand shahri	10 209,3	114,6
Kattaqo'rg'on shahri	8 254,7	101,0
tumanlar:		
Oqdaryo	2 286,8	101,7
Bulung'ur	4 014,1	100,0
Jomboy	2 942,3	101,5
Ishtixon	2 253,6	99,9
Kattaqo'rg'on	2 100,1	101,5
Qo'shrabot	2 541,0	100,3
Narpay	2 069,2	100,1
Payariq	2 058,2	102,5
Pastdarg'om	2 588,6	100,8
Paxtachi	2 098,7	100,9
Samarqand	2 537,6	101,4
Nurobod	2 357,2	100,2
Urgut	3 308,0	101,3
Toyloq	2 167,7	102,1

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 998,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 76,9 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 364,4 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 66,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 634,1 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 84,2 %)ni tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 364,4 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 634,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	998,5	76,9	364,4	66,9	634,1	84,2
Samarqand shahri	49,7	32,1	47,6	31,5	2,1	20,7
Kattaqo'rg'on shahri	126,1	186,6	40,3	67,5	85,8	8,6 m.
tumanlar:						
Oqdaryo	58,6	102,1	4,5	182,0	54,1	101,2
Bulung'ur	81,2	78,6	38,8	149,1	42,4	55,9
Jomboy	116,2	145,5	39,3	2,8 m.	76,9	120,3
Ishtixon	30,2	47,8	7,9	37,9	22,3	53,2
Kattaqo'rg'on	89,8	119,9	37,7	126,8	52,0	116,0
Qo'shrabot	29,7	44,4	10,5	34,5	19,3	52,7
Narpay	40,9	82,4	40,2	87,4	0,7	13,7
Payariq	87,2	110,6	20,3	142,2	67,0	106,0
Pastdarg'om	51,5	54,4	6,3	30,8	45,2	61,8
Paxtachi	40,2	68,2	12,4	81,4	27,8	64,4
Samarqand	51,0	94,7	5,9	2,3 m.	45,1	90,4
Nurobod	60,7	73,7	25,8	109,6	34,8	60,2
Urgut	48,7	31,8	15,9	21,4	32,8	40,8
Toyloq	36,8	62,9	11,0	80,0	25,8	58,8

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,5
mlrd. so'm

Tuzlamalar



133,3
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



14,0
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

49,8
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



19,2
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

20,1
mlrd. so'm



Tuxum

58,8
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

9,9
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-xashaklar**

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 364,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (133,3 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

6,8
mlrd. so'm



Ziravorlar

42,8
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

6,2
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, viloyat bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 634,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 514,4 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 93,4 mlrd. so'mni, otlar 22,0 mlrd. so'mni, parrandalar 4,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 %ni tashkil etib, 303,5 mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 83,5 %ni tashkil etdi. Bunda jami savdo aylanmasining 84,4 %lik ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	303,5	83,5	47,4	173,6	256,1	86,2
Samarqand shahri	173,8	86,9	44,4	172,4	129,4	84,1
Kattaqo'rg'on shahri	10,2	82,3	0,0	0,0	10,2	93,1
tumanlar:						
Oqdaryo	3,6	83,7	0,0	0,0	3,6	94,7
Bulung'ur	8,8	97,5	1,70	0,0	7,1	89,1
Jomboy	7,5	77,8	0,0	0,0	7,5	88,0
Ishtixon	4,4	86,2	0,0	0,0	4,4	97,5
Kattaqo'rg'on	5,7	80,9	0,0	0,0	5,7	94,1
Qo'shrabot	4,3	84,3	0,0	0,0	4,3	95,4
Narpay	6,0	78,8	0,0	0,0	6,0	89,2
Payariq	6,3	78,9	0,0	0,0	6,3	89,3
Pastdarg'om	22,3	75,9	0,4	84,3	21,9	85,7
Paxtachi	4,0	98,3	0,5	0,0	3,5	97,9
Samarqand	14,1	75,0	0,3	44,4	13,8	86,4
Nurobod	5,0	82,5	0,0	0,0	5,0	93,3
Urgut	15,9	73,8	0,1	106,4	15,8	83,3
Toyloq	11,6	75,4	0,0	0,0	11,6	85,3

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2019- yil yanvar-noyabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,38 %dan 0,37 %ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 303,5 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 83,5 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 302,3 mlrd. so'm (99,63 %) nodavlat mulk hamda 1,1 mlrd. so'm (0,37 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Samarqand shahri (0,37 %)ga to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	303 462,9	100,0	302 341,7	99,63	1 121,2	0,37
Samarqand shahri	173 789,2	57,3	172 668,0	99,63	1 121,2	0,37
Kattaqo'rg'on shahri	10 155,4	3,3	10 155,4	100,0	-	-
tumanlar:						
Oqdaryo	3 641,4	1,2	3 641,4	100,0	-	-
Bulung'ur	8 781,5	2,9	8 781,5	100,0	-	-
Jomboy	7 536,8	2,5	7 536,8	100,0	-	-
Ishtixon	4 414,3	1,5	4 414,3	100,0	-	-
Kattaqo'rg'on	5 709,8	1,9	5 709,8	100,0	-	-
Qo'shrabot	4 306,2	1,4	4 306,2	100,0	-	-
Narpay	6 012,4	2,0	6 012,4	100,0	-	-
Payariq	6 345,6	2,1	6 345,6	100,0	-	-
Pastdarg'om	22 264,5	7,3	22 264,5	100,0	-	-
Paxtachi	3 979,8	1,3	3 979,8	100,0	-	-
Samarqand	14 081,9	4,6	14 081,9	100,0	-	-
Nurobod	4 984,5	1,6	4 984,5	100,0	-	-
Urgut	15 883,0	5,3	15 883,0	100,0	-	-
Toyloq	11 576,4	3,8	11 576,4	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 401,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 102,8 %ni tashkil etdi. Jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 1 671,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 141,9 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 4 730,2 mlrd. so'mni (93,7 %ni), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi 2 932,7 mlrd. so'mni (93,7 %ni) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi 1 797,5 mlrd. so'mni (93,6 %ni) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar


Mikrofirma

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik korxonalar bo'yicha Samarqand shahrida (4,0 marta) va Bulung'ur (509,4 marta), Paxtachi (56,3 marta) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori ulush Samarqand shahrida (51,6 %), Pastdarg'om (7,4 %), Toyloq (9,9 %), Samarqand (5,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	6 401,5	102,8	1 671,3	141,9	4 730,2	93,7
Samarqand shahri	3 302,6	124,4	1 193,0	4,0 m.	2 109,6	89,5
Kattaqo'rg'on shahri	107,8	99,6	0,4	2,0 m.	107,4	99,4
tumanlar:						
Oqdaryo	144,0	89,6	0,4	2,4	143,6	99,7
Bulung'ur	221,6	178,6	93,2	509,4 m.	128,4	103,6
Jomboy	101,2	99,7	0,4	86,4	100,7	99,8
Ishtixon	104,9	106,4	11,9	3,6 m.	92,9	97,6
Kattaqo'rg'on	340,5	93,8	0,9	2,4 m.	339,6	93,7
Qo'shrabot	12,3	93,3	0,2	32,6	12,2	95,6
Narpay	62,3	102,7	12,6	165,9	49,7	93,7
Payariq	154,8	88,8	22,7	55,2	132,1	99,2
Pastdarg'om	475,3	49,2	318,5	39,5	156,8	98,3
Paxtachi	69,2	126,5	15,7	56,3 m.	53,4	98,2
Samarqand	365,6	98,3	0,4	21,8	365,3	98,7
Nurobod	37,1	94,1	0,3	2,1 m.	36,8	93,7
Urgut	270,4	93,7	0,5	149,7	269,9	93,7
Toyloq	631,9	97,5	0,2	196,7	631,8	97,5

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, 4 730,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 93,7 %ni, jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 73,9 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda yuqori ulush Samarqand (99,9 %), Urgut (99,8 %), Oqdaryo (99,7 %), Kattaqo'rg'on (99,7 %) tumanlarida va Kattaqo'rg'on shahrida (99,6 %) bo'lgan. Eng past ulush esa Pastdarg'om (33,0 %) tumaniga to'g'ri keldi.

